

Aziza AKMALOVA,
O'zMU tayanch doktoranti
E-mail: azixonakmalova1991@mail.ru
Tel.: (90)918-80-23

O'zMU f. – m. f. d. Z.R.Raxmonov taqrizi asosida

INCREASING THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF STUDENTS IN THE CONDITIONS OF DIGITALIZATION

Annotation

The article describes the issues of developing the intellect of higher education students based on the digital educational environment and preparing them for intellectual activity.

Key words: Distance education, digital education, digitization, ICT literacy, computer, innovative technologies, pedagogical skills, creativity

ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы развития интеллекта студентов высших учебных заведений на основе цифровой образовательной среды и подготовки их к интеллектуальной деятельности.

Ключевые слова: Дистанционное образование, цифровое образование, цифровизация, ИКТ-грамотность, компьютер, инновационные технологии, педагогическое мастерство, креативность.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALAR INTELLEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta'lim muhiti asosida oliy ta'lim talabalarining intellektini rivojlantirish va shu asosida ularni intellektual faoliyatga tayyorlash masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, raqamli ta'lim, raqamlashtirish, AKT savodxonlik, kompyuter, innovatsion texnologiyalar, pedagogik qobiliyat, yaratuvchanlik.

Kirish. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Xozirgi vaqtda oliy ta'lim sifatini oshirish sohasida milliy loyihalarni amalga oshirishga bo'lgan munosabati butun jamoatchilik e'tiborida. Raqamlashtirish sharoitida talabalarining intellektual salohiyatini oshirish va axloqiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarning kuchayishi, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi bilan bog'liq o'zgarishlar, oliy ta'lim muassasalarining kadrlar tayyorlashdagi jiddiy raqobat sharoitini keltirib chiqaradi, bu esa ta'lim sifati muammosi OTMda eng muhim masala hisoblanadi. Talabalarining intellektual salohiyatini oshirish bilim, ko'nikma, malakalari darajasini, o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish darajasini hamda uni amalga oshirish sharoitlarida aks etadi. Bugungi kunda esa ta'lim jarayonini takomillashtirish, yanada samarali shakl, uslub va o'quv qo'llanmalarini izlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, buning natijasida ta'lim sifatini oshirish zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda. Talabalar bilimining davlat standartlariga muvofiqligi, ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyati, har bir o'qituvchi faoliyati – bu yangi O'zbekistonga ilm-fanga e'tibor yuqori cho'qqiga chiqqani bejiz emas.

XX asrning o'rtalarida boshlangan va bir necha o'nlab davlatlar makonini qamrab olgan navbatdagi ilmiy-texnikaviy inqilob inson aql-zakovati imkoniyatlarini shu qadar ishonchli namoyon etdiki, o'tgan asrning so'ngi o'n yilligi boshlariga kelib raqamlashtirish tushunchalari juda ishonchli timsollarni oldi.

Jahon-tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichini belgilovchi global intellektuallashuv nafaqat mamlakatlar va xalqlarning iqtisodiy-texnikaviy, axborot-madaniy yaqinlashuvida, xalqaro ishlab chiqarishni, ilmiy, axborot va iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Eng muhimi oliy talimni rivojlantirishda talabalar salohiyatida muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish hamda ta'lim jarayoniga joriy etish imkoniyatlarini yurtimiz olimlaridan A.A. Abduqodirov, R.R. Boqiyev, U.Sh. Begimqulov, S.S.G'ulomov, M.H. Lutfillayev, D. Toshtemirov, D.X. Narziqulova va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Axborot texnologiya xususiyatlarini o'rganish, fanlarning metodik ta'minotini ishlab chiqish, turli sohalarda axborot texnologiyalardan foydalanish jihatlarini Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.V. Bolotov, M.V. Goryainov, L.P. Grishenko, T.A. Dyujeva, M.A. Ivanova, Z.V. Semenova, E.E. Sivokon kabilar o'z tadqiqotlarida ko'rib ilmiy jihatdan bayon etganlar.

Shaxsning rivojlanishi, shuningdek, bolalarda ijodiylik va intellektuallik xususiyatlari, o'quvchilar intellektualini rivojlantirishning pedagogik-psixologik masalalarini xorijlik olimlardan B. Atrostic, E. Brynjolfsson, L. Varshavskii, A. McAfee, S. Nguyen, C. Fry, F. Barrom, J. Guilford, D. Harrington, C. Hoffmann, J. Piaget larning ilmiy tadqiqotlarida ishlarida keng yoritilgan [2,3,4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning obyekti sifatida raqamli ta'lim muhiti asosida oliy ta'lim talabalarining intellektini rivojlantirish jarayoni tanlab olingan. Raqamli ta'lim muhiti asosida talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirishning mazmuni, shakl, usul va texnologiyalari tashkil qilinadi.

Tadqiqot ishi doirasida kreativ yondashuv asosida shakllantirilgan fanga doir topshiriqlar ishlab chiqildi. Murakkabligi jihatidan informatika fani boshqa fanlardan ajralib turadi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishda irsiy va tashqi omillar o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni hisobga olish eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Ko'plab olimlarning fikricha, masalan N.F. Shlyaxta insonga berilgan patensial imkoniyatlarini aniqlanishi ularning rivojlanishi atrof-muhitga, ta'lim va tarbiya ta'siriga, ta'lim muassasalariga bog'liqligini aniqladi. Shunday ekan insonning intellektual salohiyatini rivojlantirishga atrof-muhit ta'sirining hissasini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Shunday qilib oliy ta'lim muassasalarida o'qish juda muhim ekologik omil hisoblanadi. Universitetda o'qishning aqlni rivojlantirishga ta'siri darajasi talabalarining haqiqiy patensial ko'p jihatdan jarayonning har xil predmetiga

individual yondashish prinsipi amaliyotda qanday amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Zamonaviy ta'lim an'anaviy o'qitish texnologiyasidan foydalanadigan prinsipga asoslanadi. Bu ma'ruza va seminar shakllarining keng tarqalganligi bilan yordam beradi. Intellektual qobiliyatlar va o'quv qobiliyatlarga ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan, o'qitishning guruh shakllarining ta'siri "umumiy muhit" omillariga taalluqlidir [5].

Tahlil va natijalar. Raqamli ta'lim muhiti asosida oliy ta'lim talabalarining intellektini rivojlantirishni o'rganish juda muhimdir. Raqamli ta'lim muhiti asosida oliy ta'lim talabalarining intellektini rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanishingiz mumkin:

Raqamli ta'lim texnologiyalari va dasturlar:

Ma'ruza va video darsliklar: Talabalar uchun ma'ruzalar va video darsliklar orqali ta'lim oluvchi dasturlar yaratish.

Interaktiv darsliklar: Interaktiv vazifalar, savol-javoblar va sinovlar orqali talabalarni qiziqtirish va o'rganish uchun o'quv materiallarini muhokama qilish.

Texnologiyalarni amaliyotga olish:

Dasturlash: Talabalar uchun dasturlashni o'rganish va bu sohani rivojlantirish uchun dasturlash kurslari.

Ma'lumotlar tahlili: Raqamli ma'lumotlar tahlili va bu ma'lumotlarni qanday foydalanishni o'rganishga imkoniyat yaratish.

Virtual laboratoriyalar va simulatsiyalar:

Virtual laboratoriyalar va simulatsiyalar orqali talabalar o'quv jarayonida amaliyot olishadi va nazariy bilimlarni amaliyotda sinash uchun imkoniyat yaratiladi.

Raqamli ta'lim platformalari:

O'quv dasturlarini online platformalarda yaratish: Moodle, Canvas, Google Classroom va boshqalar kabi online platformalarda ma'ruzalar, vazifalar, sinovlar va boshqa o'quv materiallarini tashkil qilish.

Multimedia vositalardan foydalanish:

Animatsiyalar, infografikalar, interaktiv grafikalar va boshqa multimedia vositalardan foydalanish, o'quv materiallarini qiziqarli va tushunarli qilish.

Proyektlar va laboratoriyalar:

Talabalarga qatnashib, ularning o'zlariga oid projelarni bajarishlari uchun imkoniyat yaratish. Bu, o'quvchilar uchun amaliy tajriba va o'zlashtirishni kengaytiradi.

Ta'lim jarayonida shaxsiy holatni boshqarish:

Talabalarga personalizatsiya qilingan o'quv yo'nalishlarini tanlash va taqdim qilish, ularning shaxsiy ma'lumotlari va xarakteristikalarini qo'llab-quvvatlash.

Hamkorlik va jamiyat bilan integratsiya:

Raqamli ta'limda hamkorlikda ishlash orqali sohada rivojlanishni ta'minlash. Jamiyat bilan hamkorlik orqali oliy ta'lim o'quvchilariga rivojlantirilgan va ma'naviyatli ta'lim tajribasi taqdim etish.

Yangi texnologiyalardan foydalanish:

Yagona agent, ishlab chiqarish, matematika va boshqa sohalarida intellektual salohiyatlarni rivojlantirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish.

Bu usullar, oliy ta'lim o'quvchilarining intellektual salohiyatlarini rivojlantirishda yordam berishi mumkin. Raqamli ta'limni malakaviy, innovatsion, va shaxsiy yondashuvni taqdim etishda ishlatish, talabalarga yangi texnologiyalar bilan tanishishga va ularga amaliy tajribani oshirishga imkoniyat yaratadi [6].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

1. Nafaqat universitet hududida, balki talabaning yashash joyida ham maxsus o'quv muhitini yaratish;

2. O'rganilayotgan bilim va faoliyat sohasining yaxlit tasavvurini yaratuvchi va talabaga intensiv o'qitish uchun ustuvor bilim sohasini mustaqil tanlash imkonini beruvchi so'rov o'qitishdan keng foydalanish;

3. O'qitishning lug'at (kasbiy lug'atlarga kiritilgan tushunchalar, faktlar, shaxslarni tizimli o'rganish) va algoritmik (kasbiy ko'nikmalar algoritmlarni tizimli o'rganish) turlaridan muntazam foydalanish;

4. Talabalarining doimiy o'zgarib turadigan sharoitlarda axborotni mustaqil izlash, ijodiy idrok etish mustaqil harakatlarni tashkil etuvchi rivojlantiruvchi ta'lim sohasiga singdirish.

An'anaviy oliy ta'limda individual xususiyatlarni hisobga olish uzoq vaqt davomida qiyin bo'lgan, chunki darslarning ommaviy, guruhli tabiati bunga deyarli hech qachon imkoniyat qoldirmadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarga asoslangan o'qitish, an'anaviylarga qaraganda ko'proq, talabalarni o'qitishning individual usulini amalga oshirishda ko'rib chiqilayotgan muammoni hal qilishga imkon beradi. Bu bir necha sabablarga ko'ra sodir bo'ladi:

U dastlab talabalarining mustaqil, individual ishiga qaratilgan materialni o'rganish tezligi, joyi va vaqtini tartibga solmasligi. Agar kerak bo'lsa, talabalar o'zlarini qiziqtirgan masala bo'yicha o'qituvchilardan pedagogik yordam olishlari mumkin.

Talaba yetakchi mutaxassislar tomonidan tayyorlangan, fanning eng yangi yutuqlarini ochib beruvchi o'quv materiallarini olish imkoniyatiga ega. Ushbu o'quv qo'llanmalar oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, ularda fan materiallari va uni o'zlashtirish vositalari mavjud. Har bir talaba asosida tuzilgan materiallarning individual tanlovini olish imkoniyati mavjud. Shaxsiy ta'lim ehtiyojlaridan axborot kommunikatsiya texnologiyalarga asoslangan ta'lim talabalarga turli xillari tanlash imkoniyatini beradi. Materialni o'rganishning turli shakllari: matn, video ma'ruza, kompyuter dasturlari, turli shakllardagi faol darslar kiradi.

Raqamlashtirilgan sharoitda axborotning rivojlanishi o'qituvchilar va talabalar o'rtasida turli xil virtual aloqalarni nazarda tutadi. Bu aloqalarni tashkil etishda talabaning individual ta'lim usuli hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kuzatishlar va maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu maqola talabaga mustaqil ravishda qaror qabul qilish qobiliyati, masalan yangi materialni o'rganishga o'tish yoki oldingi mavzu bo'yicha mashqlarni davom ettirish, shuningdek motivatsiyaga ijobiy ta'sir qilishga yordam beradi. Shunday qilib biz intellektual salohiyatni rivojlanish imkoniyatlarini hisobga oladigan samarali ta'lim muhitini yaratishimiz kerak [7-8].

Ushbu maqsadlarga erishishda universitet majmualarida alohida vazifalar yuklangan. Intellektual salohiyatga ega ta'lim muhiti sifatida O'zbekistondagi bir qancha universitetlarni olishimiz mumkin. O'zbekiston Milliy universitet negizida ham ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va mazmunini ta'minlashning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda. Talabalarining intellektual

salohiyatini rivojlantirish xususiyatlari va birinchi navbatda, bu ta'lim standartlari, pedagogik axborot texnologiyalari bo'yicha o'quv rejalari, ta'lim dasturlarida aks ettirilgan ta'lim mazmunda o'zgarishlarga taalluqlidir. Intellektual salohiyatni rivojlantirish oliy talimning nafaqat iqtidorli yoshlarni tanlash orqali emas, balki uning samarali faoliyati orqali amalga oshiriladi. Ushbu alohida holatda oliy ta'limni baholash mezonlari o'quv jarayonini tashkil etish ko'rsatkichlari: joriy etilgan ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayonini axborot-kommunikatsiya bilan ta'minlash, o'rganishning individual yo'nalishi, samaradorlikni oshirish sohasidagi ilmiy tadqiqot natijalarini qo'llash kabilardir.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar vositasi yordamida ta'limni tashkil etish talabalarning dars mashg'ulotlariga faol qatnashishi, mavzularni to'liq o'zlashtirishi, kelajakdagi kasbiga mehrining oshishi va turli kompetensiyalarni rivojlanishiga sabab bo'ladi [9].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun asos yaratib, bilimlar jamiyatining axborot integratori sifatida o'ziga xos rolga ega bo'ladi. Integrator deganda murakkab tizimning rivojlanishini ta'minlash maqsadida uning qismlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlarini amalga oshiruvchi tashkilot tushiniladi. Bunday holda, biz axborotning o'zaro ta'sirini ko'rib chiqamiz. Ya'ni bilimlarni birgalikda yaratish, almashish va uzatish jarayonlari. Shu ma'noda oliy ta'lim va ilmiy tuzilmalarning ishlab chiqarish, madaniyat muassasalari davlat tuzilmalari bilan aloqasi va hamkorligining yetakchi ishtirokchisi va tashkiliy vositachisiga aylanadi. Hamkorlikdan maqsad ta'lim va fanning fanlararo muammolarini, shuningdek, intellektual salohiyatni rivojlantirish uchun innovatsion faoliyatni hal qilish bo'yicha say-harakatlarni birlashtirishdir.

ADABIYOTLAR

1. Shea P. and Bidjerano T. Understanding distinctions in learning in hybrid, and online environments: an empirical investigation of the community of inquiry framework. *Interact. Learn. Environ*, 2013, 21(4): 355–370.
2. Saadé.R., Nebebe. F., and Tan.W. Viability of the 'Technology Acceptance Model' in multimedia learning environments: A comparative study. *Interdiscip. J. E-Learning Learn. Objects*, 2007, 3(1): 175–184.
3. Zydney J. M., and Seo K. K.-J. Creating a community of inquiry in online environments: An exploratory study on the effect of a protocol on interactions within asynchronous discussions. *Comput. Educ*, 2012, 58(1): 77–87.
4. Joo Y. J., Lim K. Y., and Kim E. K. Online university students' satisfaction and persistence: Examining perceived level of presence, usefulness and ease of use as predictors in a structural model. *Comput. Educ*, 2011, 57(2):1654–1664.
5. Umarova R.U. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning konseptual qoidalari // "Xalq ta'limi" ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2020. 5- maxsus son. –B. 101-104.
6. Umarova R.U. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish. Metodik tavsiyanoma // "Step by step print" bosmaxonasi. – Andijon, 2021. 2,75 bt.
7. Umarova R.U. Ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati // Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika universiteti "Akademik Siddiq Rajabov o'qishlari" respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2021 yil. – B. 213-215
8. Umarova R.U. Development of intellectual potential in the context of informatization of education // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 12, 2020. Part III ISSN 2056-5852, – B. 56-59.
9. Akmalova A., Xaydarov A., Pardayeva G. Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish/. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/12/2] ISSN 2181-7324